



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

ASALARILARNING ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

Raximov M.A¹., Toshtemirova Sh.Sh¹., Madraximov Sh.N²., Atamuratova U².

¹Farg'ona davlat universiteti

²Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali

Kirish. Ma'lumki, O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoiti asal yetishtirish uchun qulay, asal beruvchi madaniy va yovvoyi o'simliklar juda ko'p va asal to'plash davri eng mahsulli davrdir. Ko'p yillik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yillik o'rtacha harorat 11,3°C ni tashkil qiladi. Eng yuqori harorat iyun oyiga to'g'ri keladi, ya'ni 44,5°C bo'lib 42,5 dan 48,5 darajagacha o'zgarib turadi. Eng past harorat yanvar oyida qayd qilinadi, o'rtacha 0-2°C ga teng. Sovuqning turg'un turishi asosan dekabrning ikkinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. Qor qoplami uncha qalin va barqaror emas. Shimoliy mintaqalarda o'simliklarning o'sish davri 210 kundan boshlab, janubda 265 kungacha davom etadi.

Tadqiqot materiallari. Asalari oilalariga zarar keltiradigan zararkunandalar, ularga qarshi kurash vositalari.



1-rasm. Dezinfektsiyalashda qo'llaniladigan vositalar va kiyim-kechaklar.



2-rasm. Qand tangachali qil dum

Tadqiqot natijalari. Qilich dumlilar turkumi (*Thysanura*) ga kiruvchi bu hasharot vakillarining qanotlari bo'lmaydi, tanasi uzunchoq shaklda bo'lib, bosh qismida uchta oddiy ko'zchalari bor. Mo'ylovlari uzun, ipsimon shaklda, ko'krak qismida 3 juft rivojlangan oyoqlari bo'lib, gavdasining oxirgi qismida, ikkita kuchli rivojlangan, ipsimon o'simtasi bor, uning o'rtasida esa uzun qilichsimon dumlari bo'ladi.

O'zbekistonda asalarichilikka qilich dumlilarning faqatgina bir vakili, qand tangachali qilichdum (*Lepisma saccharina*) zarar yetkazadi.

Termitlar turkumi (*Isoptera*) vakillarini odatda oq chumolilar deb ham atashadi. Chunki ularning shakli xuddi chumolilarnikidek bo'ladi. Termitlar juda mayda hasharot bo'lib, ularni urg'ochi va erkaklarining uzunligi 8-15 mm, ishchi termitlarniki 8-12 mm va askarcha termitlarniki esa 14-15 mm.ni tashkil etadi. Termitlarda polimorfizm xususiyati kuchli rivojlangan, ya'ni termitlar oilasida urg'ochi, erkak, ishchi termitlar bilan birga askarcha chumolilar ham bo'ladi.

Termitlar yog'och, o't-o'lan va turli-tuman mahsulot qoldiqlari bilan oziqlanadi va qurilish uskunalariga, shu jumladan, asalari qutilari va romlarini teshib ularga ko'plab zarar yetkazadi.



3-rasm. Kaspiy orti termiti (*Anacanthoterms ahngerians*)

Bu termitlar xususan Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi tog'li xududlarda keng tarqalgan. O'zbekistonda asalarichilikka ko'plab zarar yetkazadigan Kaspiy orti termiti (*Anacanthoterms ahngerians*) va Turkiston termiti (*A. turkestanicus*) kabi turlari keng tarqalgan.



4-rasm. Suvaraklar (*Blattodea*)

Suvaraklar turkumi (*Blattadea*) vakillari eng qadimiy tur bo'lib, ular ko'p asrlardan beri insonlar bilan birga hayot kechirishga moslashgan. Suvaraklar gavdasi o'ziga xos har xil shaklda tuzilgan. Bosh qismida kemiruvchi og'iz apparati, uzun va ingichka mo'ylovlari joylashgan. Oyoqlari chopqir, yaxshi rivojlangan qanotlari xilma-xil bo'lsa hamki, ular ucha olmaydi. Rangi odatda qoramtir yoki qo'ng'ir jigar rangda bo'ladi.

Suvaraklar ko'proq tun hasharotlari hisoblanadi, ular o'simlik qoldiqlari, toshlar va barglar orasi va shu kabi joylarda yashaydi. Uy-joy, oshxona, nonvoyxonalarda yashashga moslashgan turlari, ayniqsa ko'p. O'zbekistonda asosan 4 ta turi asalarichilik mahsulotlarini bulg'ab, zarar yetkazadi. Ular har xil oziq-ovqatlar bilan, jumladan asal bilan ham oziqlanadi. Ko'p turlari har xil tashlandiqlar orasida yashashga moslashgan.

Quloqkovlagichlar turkumi (*Dermaptera*) vakillari tana uzunligi 4-40 mm gacha bo'lgan kichik hasharotlardir. Sirtidan bir oz buzoqboshga o'xshash bo'lib, tanasi uzunchoq, ko'p bo'g'inli va elastik bo'ladi. Qanoti xitin qoplam bilan o'rab olingan. Oyoqlari rivojlangan va chopqirdir. Bosh qismida 2 ta uzun mo'ylovchilari bor.

5-rasm.Quloqkovlagichlar (*Dermaptera*) Tana qismi ham xitin qoplami bilan o'ralgan.

Quloqkovlagichlar toshlar ostida, chirigan ildizlar orasida, po'stloqlar tagida, asalari uyalarida ostida va boshqa sernam, issiq yerlarda ko'plab uchraydi.



6-rasm.Pichanxo'rlar(*Copeognatha*)

Respublikada keng tarqalgan quloqkovlagichlardan faqatgina bir turi oddiy quloqkovlagich (*Forficula auricularia*) asalari uyalariga kirib, asalari mahsulotlarini bulg'ab, asalarichilikka anchagina ziyon yetkazadi.

Pichanxo'rlar turkumi (*Copeognatha*) vakillari juda mayda hasharot bo'lib, ularning uzunligi 1-5 mm gacha, tanasi uzun ipsimon shaklda bo'ladi. Oq rangli, ikki juft parda qanotlari va ingichka oyoqlari bo'ladi. Bosh qismida kemiruvchi og'iz apparati hamda uzun va ingichka 12-50 bo'g'imli mo'ylovchalari joylashgan.




7-rasm. Beshiktervatarsimonlar (*Mantodea*).

Pichanxo'rlar daraxt va butalar po'stloqlari orasida, xashaklar orasida, devor kovaklarida, o'simlik va hayvon qoldiqlarida, qushlar va boshqa hayvonlar uyalarida, tuproqda, odamlar yashaydigan uylarda va boshqa joylarda yashaydi. Respublikada keng tarqalgan oddiy uy pichanxo'ri (*Trogium pulsatorium*) va китобхѣп (*Jiposcelis divinatorius*) kabi turlari asalarichilik

mahsulotlari bilan oziqlanib, sohaga anchagina ziyon yetkazadi. Pichanxo'rlar asalari uyasiga kirib, har xil kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroblarni tarqatishda ishtirok etadi.

Beshiktervatarsimonlar turkumi (*Mantoolea*) vakillari aksariyat katta hajmda, yirtqich, tanasi cho'zinchoq bo'ladi. Tanasining rangi yashil muhitga mos bo'lganidan, dushmanlaridan yaxshi himoyalanaadi.

Bosh qismida kattakon ikkita ko'zlari joylashgan. Og'iz apparati kemiruvchi bo'lib, tutgan o'ljasini darhol bo'laklarga bo'lib yeydi. Mo'ylovchalari uzun ipsimon, qanotlari yaxshi rivojlangan, mustahkam va harakatchan uch juft oyoqlari bor, oldingi oyoqlari yirtqichlikka moslashgan bo'lib, o'ljasini mahkam qisib olib, darhol jonsizlantiradi. Bahorda yosh beshiktervatarlar chiqib, dastavval mayda hasharotlar bilan oziqlanadi.



8-rasm. Ninachilar (*Odonata*)

Beshiktervatarsimonlarning juda ko'p turlari, jahon asalarichiligiga ko'plab zarar yetkazib kelmoqda. Shulardan O'zbekistonda faqatgina bir turi oddiy beshiktervatar (*Mantis religiosa*) asalarilarni ko'plab tutib yeydi.

Ninachilar turkumi (*Odonata*) vakillari hasharotlar sinfining eng qadimiy vakillaridan biridir. Ninachilarning tuzilishi xuddi samolyotlarga o'xshab ketadi. Tana tuzilishi uzun bo'lib, pardasimon qanotlarini yoyganda, uning sathi 70 mm gacha yetadi. Bosh qismi katta, harakatchan bo'lib, rivojlangan, ikki dona yirik ko'zlari va uchta sodda ko'zchasi bor. Mo'ylovlari kalta, qilsimon va ikki juft pardasimon qanotlari bo'ladi. Kemiruvchi og'iz apparatiga ega.

O'z o'ljasini asosan gullarga qo'ngan va chuchuk suv havzalariga suv ichishga kelgan paytlarida tutib oladi. O'zbekistonda ninachilarning asosan bir turi katta shayinli ninachi (*aeschna grandis*) asalarilarni ko'plab qiradi va asalarichilikka anchagina ziyon yetkazadi.

Xulosa. Asalarilarni turli xil zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilishga doir zooveterinariya tadbirlari, asalari oilasini saqlash va boqish texnologiyasi qoidalariga zid bo'lmasligi, umumiy zooveterinariya tadbirlarining bir qisminigina tashkil qilishi lozim. Asalari zararkunandalariga qarshi kurash jarayonida zooveterinariya tadbirlarini o'tkazish, zararkunandalarning ko'payishi va hayot kechirishi hamda ularning asalarichilikdagi keltiradigan iqtisodiy zararlarini bilishga asoslanishi lozim. Bu tadbirlar zararkunandalar eng ko'p uchraydigan paytlarda qo'llanilishi talab etiladi. Asalari zararkunandalari turlarining ko'payishi, ularga qarshi turlicha zooveterinariya tadbirlarni qo'llashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov M.A., Haydarov M. Asalarichilikda intensive texnologiya. Jur. Journal of new century innovations. 2023 November. p.110-115

2. Raximov M.A., Haydarov M., Azizov R.O. Sun'iy usulda ona asalari etishtirish. Jur. Journal of new century innovations. 2024 January. Volume- 44 Issue-2 p.48-54
3. Raximov M.A., Jamolov R., Azizov R.O. The maintasks in carrying out breeding works in beekeeping. Jur. "Ethiopion international journal of Miltidisciplinari Research". 2024. 3-6 p.
4. Raximov M.A., Akbarova M.A., Mirzobidinova M. Dorivor o'simliklar biologiyasining tarixi va asalarichilikdagi roli. Jur. Pedagogics international research journal. 2024. volume-54. 28-33 p.
5. Raximov M.A., Akbarova M.A., Mirzobidinova M. Dorivor va asal beruvchi o'simliklarning tabiiy florasini. Jur. Pedagogics international research journal. 2024. volume-54. 34-37 p.
6. Raximov M.A., Akbarova M.A., Mirzobidinova M. Dorivor va asalli o'simliklarga antropogen o'simliklarning ra'siri. Jur. Pedagogics international research journal. 2024. volume-54. 38-41 p.
7. Raximov M.A., Xoldorov X.M. Suyarqulov Sh. Asal va asalarichilik mahsulotlaridan foydalanish texnologiyasi. Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini innovatsion rivollantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Farg'ona 2024. 15- may. 535-541 b.
8. Raximov M.A., Xoldorov X.M. Asalari zararkunandalarining ekotizimdagi o'zaro munosabatlari. Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini innovatsion rivollantirish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Farg'ona 2024. 15- may. 542-546 b.
9. Raximov M.A., Azizov R.O., Nuraddinova M.E. Asalari zararkunandalari (chala rivojlanish siklidagi hasharotlar turkumi). Tuproq biogeokimyosi-biosferaning barqaror rivojlanishi va muhofazasi. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari to'plami. Farg'ona 2024. 214-219 b.

ASALARILAR YORDAMIDA QISHLOQ XO'JALIK EKINLARINI CHANGLATISHNING SAMARADORLIGI

Raximov M.A.¹, Ahlidinova J.H.¹, Madraximov Sh.N.², Dawletmuratova G.².

¹Farg'ona davlat universiteti

²Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali

Kirish. O'simliklar hosildorligini oshirishda hasharotlarning changlatish faoliyati katta ahamiyatga ega. Hasharotlarning ekinlarni changlatishdagi rolini tasavvur qilish uchun bu o'simliklarning 80 % chetdan changlanishga muhtojligini aytish kifoya qiladi. Iqlim va tuproq sharoitlarining xilma-xilligi, yovvoyi va madaniy o'simlik turlarining ko'pligi bilan farq qiladigan O'zbekistonda asalarilar yordamida o'simliklarni changlatish usuli keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqot obyekti. Qishloq xo'jaligi ekinlari va asalari oilasi. Arilar guldan gulga qo'nib, o'simliklarning gul changini biridan ikkinchisiga o'tkazib, ularning changlanishini ta'minlaydi. Arilar gullarning ayrim turlariga borib qo'nishida va mo'ljalga olishida gul hidlarining ahamiyati katta. Har xil turdagi o'simliklarning gullari har xil hid ajratgani uchun ham arilar ularni yaxshi mo'ljalga olib, tez qidirib topadi.

Tadqiqot natijalari. Arilar ko'proq borib qo'nadigan gullarga yaxshi moslashib olib, har bitta ari o'nlab gullar orasidan o'zi sharbat olayotgan gulni topa oladi. Ari doimo bir xil turdagi o'simlik gullariga qo'nganida changlanish yaxshi bo'lmas edi. Arilar o'simlik gullarida sharbat kamayib qolganidagina ayrim tur o'simlik gullaridan boshqa tur o'simlik gullariga borib qo'nadi.